



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

¹ Mallayeva Husnarobonu Botir qizi

² Nomozova Shoxsanam Abdualim qizi

³ Ibragimov Jahongir Toshniyozovich

¹ Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali Ijtimoiy ish yo‘nalishi talabasi;

² Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali Ijtimoiy ish yo‘nalishi talabasi;

³ Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi; e-mail:
Jahongir.5066@gmail.com

STRATEGIYALAR BOSHQARUV SOTSILOGIYASINING OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshqaruv jaroyonlarining tarixiy shakllari, boshqaruv masalalari, boshqaruv sotsiologiyasi va boshqaruv sotsiologiyasi obyekti sifatida olingan Taraqqiyot strategiyasi hamda uning maqsad va yo‘nalishlari haqidagi ma’lumotlar, jumladan, muallifning o‘z fikrlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Taraqqiyotning O‘zbek modeli, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, Yangi O‘zbekiston – 2030 strategiyasi, Yangi O‘zbekiston, strategiya, boshqaruv, sotsiologiya, demokratiya, boshqaruv sotsiologiyasi, Barqaror taraqqiyot, davlat boshqaruvi, boshqaruv sotsiologiyasi tadqiqot obyekti.

Аннотация: В статье содержатся сведения об исторических формах процессов управления, проблемах управления, социологии управления и Стратегии развития как объекта социологии управления, а также ее целях и направлениях, включая собственное мнение автора.

Ключевые слова: Узбекская модель развития, Стратегия действий, Стратегия развития, Новый Узбекистан – стратегия 2030, Новый Узбекистан, стратегия, менеджмент, социология, демократия, социология управления, Устойчивое развитие, государственное управление, социология управления, объект исследования.



Abstract: The article contains information about the historical forms of management processes, management problems, sociology of management and Development Strategy as an object of sociology of management, as well as its goals and directions, including the author's own opinion.

Key words: Uzbek development model, Action Strategy, Development Strategy, New Uzbekistan - strategy 2030, New Uzbekistan, strategy, management, sociology, democracy, sociology of management, Sustainable development, public administration, sociology of management, object of study.

Kirish. Mamalakatimizda jamiyatdagi siyosiy tuzimlarning yangilanishi keng qamrovli jarayon bo‘lib, bunda davlat va uning boshqaruvi masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida davlat boshqaruvi modernizatsiyasi jarayonlari yuz berishi tabiiy. Negaki, demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda davlat boshqaruvi muammolari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga davlat boshqaruvi apparati va davlat xizmatchilari faoliyatini takomillashtirishda, boshqaruvga oid fanlarning, shu jumladan, boshqaruv sotsiologiyasining ilmiy tavsiyalari ham muhim hisoblanadi. Bevosita boshqaruv davlatning tuzilmalarini saqlab turish, faoliyatini tartibga solish, turli xil dastur va maqsadlarni amalga oshirilishini ta’minlovchi asosiy vosita sanaladi. Boshqacha qilib aytganda, davlat boshqaruvi turli vazifalarni amalga oshirilishida rahbarlik qilish, nazorat qilish hamda tartibga solishning muhim bir jarayonidir.

Davlat boshqaruvi tizimi o‘z mohiyatiga ko‘ra, davlatning jamiyatni tartibga solish, saqlab turish, takomillashtirish hamda uning institutsional, huquqiy va mafkuraviy jihatlariga maqsadli ta’sir etish majmuidir.¹

Bundan tashqari, zamonaviy jamiyatning o‘zini-o‘zi tashkil etish jarayonlarida tizimga mos tarzda boshqaruv tizimining ham rivojlanib borishini hisobga olgan. Shu o‘rinda, boshqaruv sotsiologiyasida boshqaruvga quyidagicha ta’rif beradi: Boshqaruv – tashkilot maxsus organining funksiyasi bo‘lib, eng kam vositalar (vaqt, kuch, zahiralar) sarflagan holda eng yuqori natijaga erishish bo‘yicha aniq tashkil etilgan faoliyatdir.²

Mustaqillik yillarda davlat va jamiyat boshqaruvi sohasida strategik yondashuvga ko‘proq ahamiyat berilmoqda. Buni o‘tgan yillarda hayotga tadbiq etilgan, hozirda amalda bo‘lgan va kelajakka mo‘ljallangan davlat dasturlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Shu jumladan, shu dasturlarimizning dastlabki birinchisi bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tishning o‘zbek modelidir.

¹ Xolbekov A. Boshqaruv sotsiologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Akademika” Toshkent 2007. 7-bet.

² Xobekov A., Idirov U. Sotsiologiya (izohli lug‘at ma’lumotnomasi). – T. Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1999, 24- bet.



“Taraqqiyotning o‘zbek modeli” maqsadi xalqimiz uchun munosib bo‘lgan erkin, faravon hayotni barpo qilish hamda bu borada zamonaviy demokratiya prinsiplarini milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda jamiyatda qaror toptirish hisoblanadi.

Shundan so‘ng strategik maqsadlarni davom ettirish maqsadida 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi.

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlarni samaradorligini tubdan oshirish, davlat hamda jamiyatning har tomonlama tubdan jadal rivojlanishini ta’minlash uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatshiya qilish va hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Ushbu strategiyaning uzviy davomi sifatida 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi” yaratildi.

Taraqqiyot strategiyasining maqsadi demokratik huquqiy davlat barpo etish, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali inson qadrini ulug‘lash hamda barcha islohotlarni bevosita hayotga tadbiq etish hisoblanadi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining oldida turgan maqsadi esa o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga birma-bir erishish, shuningdek, Yangi O‘zbekistонни rivojlantirish strategiyasida belgilab qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirishni ta’minlashdir.

Asosiy qism. Boshqaruv - tartibga solish orqali ijtimoiy tizim faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan, faoliyatning maxsus shakli hisoblanadi. Bevosita, boshqaruv bu - faoliyat sohasi va jarayonidir. Boshqaruv jarayonining maqsadi – natijani mos kelish yo‘nalishi bo‘yicha harakatni yo‘lga solishdir. Tariximizga ham nazar tashlaydigan bo‘lsak, bir qancha asarlarimizda boshqaruv jarayonlariga bag‘ishlangan masalalar o‘z aksini topgan. Jumladan, sharqda o‘z ta’limoti bilan tarixda qolgan buyuk Xitoy faylasufi Konfutsiy asarlarida boshqaruv to‘g‘risidagi qarashlari oradan shuncha uzoq vaqt o‘tgan bo‘lishiga qaramasdan o‘zining muhimlik xususiyatlarini yo‘qotmagan. O‘rtta asrlarda yashagan, Abu Nasr Forobiy esa, jamiyatning rivojlanish taraqqiyotida rahbarning xizmati katta ekanligini ta’kidlab, o‘zi orzu qilgan adolatli jamiyat rahbari bir qator fazilatlarga ega bo‘lishi kerakligini aytib o‘tgan. Shu bilan birga oliy insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan inson nafaqat o‘zining barkamolligi, balki boshqalarning ham baxt-saodat yo‘lida ko‘plab xayrli ishlarni amalga oshirishi shubhasiz. Forobiyning ta’limotiga hamohang holda, Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” (“Baxtga eltuvchi bilim”) asarini yaratdi. Ushbu asar rahbarning asosiy fazilatlariga, uning zimmasida turgan vazifalarga bag‘ishlangan. Mazkur asarda rahbar uchun eng asosiy me’zon adolat hamda uning qanoti bilim va qanoat bo‘lishi lozimligini muallif ta’kidlagan. Bundan tashqari,



muallif el uchun ikki narsa mustahkam tayanch ekanligini aytadi, ya’ni biri xushyorlik, ikkinchisiadolat. Bularning ikkalasi ham adolat ildizlaridir.

Yuqorida keltirilgan misollardan ham, davlat boshqaruv muhim jarayon ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, aynan bugungi kundagi davlat siyosatimizda ham davlat boshqaruvining o‘ziga xos ko‘rinishlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Endi boshqaruv sotsiologiyasining o‘ziga to‘xtalib o‘tsak. Xo‘sh sotsiologiyaning o‘zi nima? Ma’lumki, sotsiologiya jamiyat haqidagi ta’limot hisoblanadi. “... Jamiyat g‘oyat murakkab ijtimoiy tizim bo‘lib, u odamlar o‘rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy va h.k. munosabatlarning, tarixan tarkib topgan oila, jamoa, millat, din, davlat, axloq va h.k.larning majmuidir”.³

Sotsiologiyada jamiyat va inson bir-biri bilan tasodifiy aloqaga kirishuvchilar emas, balki tartibli tuzilma sifatida, muayyan qoidalar asosida bir-biri bilan o‘zaro aloqaga kirishuvchi qismlardan iborat deya talqin qilinadi.

Sotsiologiya – ijtimoiy tizimlarning tarkibiy tuzilishini tashkil etuvchi aniq ijtimoiy tizimlar (jamiyat), ijtimoiy institutlar va birliklarning rivojlanishi hamda faoliyat ko‘rsatishining umumiy va maxsus qonuniyatlar haqidagi fan.⁴

Shuningdek, boshqaruv – bu aniq maqsadlarga erishish uchun resurslarni oqilona yo‘naltirish, tizimni sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini ijobiy holatini saqlash hisoblanadi. Shu bilan birga, boshqaruvning bir necha tamoyillari mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

1. Muvofiqlik tamoyili.
2. Harakatlar va qabul qilinayotgan qarorlarning axborot ta’minati tamoyili.
3. Tizimning tarkibiy tuzilishlari va kichik tizimlari o‘rtasida uning barqarorligini ta’minalash tamoyili.

Yuqoridagi tamoyillar orqali boshqaruvga oid islohotlar amalga oshiriladi. Bevosita, ushbu tamoyillar jamiyatdagi qaror topgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va barqarorligini ta’minalashda dasturil amal bo‘lib xizmat qiladi.

Boshqaruv sotsiologiyasi inson faoliyatining muayyan, ancha umumiy sohasini o‘rganadi. Uning vazifasiga jamiyatning holati (iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’naviy, ijtimoiy) va rivojlanishi sharoitlari hamda jihatlariga, ya’ni jamiyat turiga, boshqaruv subyektlari va obyektlarining tegishli turlariga, o‘zaro munosabatlar sohasiga muvofiq boshqaruv sotsiologiyasining tamoyillari va mexanizmlari, shakllari va usullarini aniqlash, tegishli ijtimoiy texnologiyalarni asoslash va ishlab chiqish kiradi.⁵

Aynan boshqaruv sotsiologiyasi insonlarning boshqaruvga oid munosabatlarini o‘rganuvchi fan hisoblanadi.

³ Ma’naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug‘ati,- T.; G. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaajodiy uyi,2009. 156-bet.

⁴ Sh. Sodiqova. Boshqaruv sotsiologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Akademiya” Toshkent – 2011. 24 – bet.

⁵ Sh.Sodiqova. Boshqaruv sotsiologiyasi(o‘quv qo‘llanma). T, Akademiya, 2011. 26-b



Boshqaruv sotsiologiyasi tadqiqot obyekti – jamiyatdagi sodir bo‘layotgan tizim asosidagi boshqaruv jarayonlarida bir-biri bilan doimiy aloqada bo‘lgan ijtimoiy guruhlar, jamoalar. Boshqaruv sotsiologiyasi fani quyidagilarni o‘rganadi:

- boshqaruv obyekti va predmeti;
- boshqaruv tamoyillari va usullari;
- ishlab chiqarishni va faoliyatni boshqarish;
- boshqarish funksiyalari;
- rahbar va uning fazilatlari;
- boshqaruv madaniyati.

Boshqaruv sotsiologiyasi fanining obyekti – talabalarga boshqaruv jarayonlariga oid bilimlarni berish. Xo‘s, endi bizda taraqqiyot strategiyasi qanday qilib boshqaruv sotsiologiyasi obyekti bo‘la oladi? - degan savol tug‘iladi.

Biz yuqoridagi ta’riflardan ham ko‘rishimiz mumkinki, boshqaruv sotsiologiya boshqaruvga oid jarayon va munosabat shakllarini o‘rganadi. Aynan taraqqiyot strategiyasida boshqaruvga doir bilimlar mujassamlashgan bo‘lib, uni o‘rgangan insonda boshqaruvga oid bilim va ko‘nikmalar shakllanishida yordam beradi. Shuning uchun ham Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini boshqaruv sotsiologiyasining obyekti sifatida o‘rganmoqdamiz. Taraqqiyot strategiyasini bir tizim deb qaraydigan bo‘lsak, unda davlat boshqaruvchisi shu tizim asosida o‘z faoliyatini olib boradi.

O‘zbekiston istiqlol tufayli o‘z taraqqiyotining tamomila yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Mana shu davning eng muhim xususiyatlaridan biri eng avvalo xalqimiz o‘zining tub manafaatlari, shuningdek ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda rivojlanish strategiyasini belgilab olish hamda uni amalga oshirishdek muhim tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan shart-sharoitlarga erishdi. Mustaqillikning ilk kunlarida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan “Taraqqiyotning O‘zbek modeli” asosiy tamoyillari belgilab berildi. Ushbu modelning yaratilishidan maqsad fuqarolarning hayotini har tomonlama isloh etish va bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin, adolatli demokratik davlat qurishdir.

Taraqqiyotning o‘zbek modelida keltirilgan yo‘nalishlarning mohiyatiga ko‘ra, mamlakatimizda yangi jamiyatni barpo etish uchun amalga oshiriladigan barcha islohotlarning tub zamiriga inson omili qo‘yildi. Zero, Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, islohot islohot uchun emas, balki, inson manfaatlari, uning erki va faravonligi uchun degan g‘oya barcha yangilanishlarning asosiy o‘zagi etib belgilandi. “Taraqqiyotning O‘zbek modeli” o‘zida 5 ta yo‘nalishni qamrab olgan:

- iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi;
- davlat - bosh islohotchi;
- kuchli ijtimoiy siyosat;
- bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o’tish;



- qonuning ustuvorligi;

Mazkur islohotlarni davom ettirish va yanada takomillashtirish maqsadida 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.⁶

Darhaqiqat, harakatlar strategiyasini ishlab chiqilishining tub mag‘zida olib borilayotgan islohotlarni takomillashtirish, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlarni kengaytirish, xususiy mulkchilikni tashkil etish va xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari qo‘yilgan. 2017-yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” davlat dasturida belgilanganidek, xalqqa ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarni yangi bosqichga olib chiqish, ya’ni “elektron hukumat” tizmi orqali fuqarolar o‘z murojaatlarini elektron tarzda yuborishlari mumkin. Bu fuqarolar uchun ko‘plab qulayliklarni berdi.

Xalq qabulxonalari O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizmini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4904-sonli farmoni bilan tashkil etildi. Bu tashkilot 2017-yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb nomlanganligi shuningdek, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi lozim” tamoyilini amalda qaror toptirish hamda jismoniy shaxslar bilan ishlash tizimini sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish maqsadida tashkil etilgan. Shu o‘rinda e’tirof etishimiz joizki, xalq bilan ishlayotgan Xalq qabulxonalari murojaat qilayotgan fuqarolarning muammolarini “mahalla-sektor-xalq qabulxonasi-mahalla” izchilligida, o‘zaro hamkorlikda hal etishmoqda. Maskur jarayon masalani tezroq va mukammalroq o‘rganishga va oson bartaraf etishga yordam beradi.

Harakatlar strategiyasi 5 ta yo‘nalishdan iborat:

- davlat va jamiyat qurilishi tizimini yanada takomillashtirish;
- qonun ustuvorligini ta’minalsh va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
- iqtisodiotni rivojlantirish va erkinlashtirish;
- ijtimoiy sohani rivojlantirish;
- xavfsizlik, millatlararo totuvlik, va diniy bag‘rikenglikni ta’minalsh, mutanosib, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish

Maskur yo‘nalishlar asosida bir necha islohotlar amalga oshirildi. Xususan, xalq bilan muloqot yo‘lga qo‘yildi, inson huquq va erkinliklarining himoyasi kuchaytirildi, tadbirkorlik yanada rivojlantirildi va davlat tomonidan qo‘llab quvvatlandi,

⁶ <https://kun.uz/uz/news/2017/02/08/munosabat-arakatlar-strategiasining-mazmun-moitiati-va-aamiati-akida-mutahassislar-fikrlari>



jinoymatchilikka qarshi kurashish tizmi, sog‘liqni saqlash tizimi takomillashtirildi, aholi bandligini ta’minlash va ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari amalga oshirildi.

Harakatlar strategiyasining uzviy davomi sifatida Taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. Taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va maqsadiga to‘xtalib o‘tsak. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan. U o‘zida 7 ta yo‘nalish va 100 ta maqsadni qamrab olgan. Strategiyaning o‘zi ta’limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizmi bo‘lib, u izchillik bilan va to‘liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ifodalaydi.

Taraqqiyot strategiyasining maqsadi - “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanmoqda. Ya’ni, **“Inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri – eng muhim qadriyat” degan tamoyil** e’tirof etilmoqda. Eng asosiysi: Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan **“davlat – jamiyat – inson”** tamoyili **“inson – jamiyat – davlat”** tamoyiliga o‘zgartirilmoqda.⁷

Xususan, unda erkin va farovon fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadri-qimmatini hamda uning huquqiy va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, adolat va qonun ustuvorligi asosida xalqchil davlat barpo etish, inson qadr-qimmatini ta’minlash, milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma’naviy va ma’rifiy sohalarda islohotlarni amalga oshirish kabi muhim vazifalarni bajarishni belgilab qo‘ygan. Bundan tashqari, global miqyosdagi muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish, tinchlik va millatlararo xavfsizlikni ta’minlash, xalqaro hamkorlikni tubdan rivojlantirish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi 7 ta asosiy yo‘nalishda 100 ta maqsadni qamrab olgan:

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

⁷ YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI: “davlat – jamiyat – inson” tamoyilidan “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o‘tilmoqda. Havola: <http://pravacheloveka.uz/oz/articles/jangi-zbekiston-tarajet-strategijasi-davlat-zhamijat-inson-tamojilidan-inson-zhamijat-davlat-tamojiliga-tilmoda>



- ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha bugungi kunga kelib ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda asosiy e’tiborni, bir tomondan fuqarolik jamiyatini rivojlanshtirish bo‘yicha qonunlar, ikkinchi tomondan esa qonun ustuvorligi ta’minlash, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish kabi masalalarga qaratgan. Shu bilan birga Taraqqiyot strategiyasida O‘zbekiston bajarishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan BMTning Barqaror taraqqiyot rivojlanish maqsadlarini mamlakatimiz hayotiga ham tatbiq etishning aniq strategiyalari belgilab berilmoqda.

Boshqacha aytganda, O‘zbekiston tashqi xalqaro munosabatlarning teng huquqli a’zosi sifatida o‘zining BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlari bilan hamohang holda rivojlanishi, bu boradagi o‘ziga xos o‘rnvi va ahamiyati, yanada muhim, ibratli tajribasini butun dunyoga ko‘rsata oldi. O‘z navbatida, Yangi O‘zbekiston tarraqqiyot strategiyasi ushbu muhim taraqqiypravar jarayon uzlusiz davom etayotganidan dalolat beradi.⁸

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan yo‘nalishlarning ijrosini ta’minlash maqsadida 2023-yil 11-sentabrda “O‘zbekiston–2030” strategiyasi ishlab chiqildi. Shu jumladan, xalqimizning xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, erkin va farovon, Yangi O‘zbekistonni barpo etishda har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, islohotlarning asosiy omili bo‘lgan iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston–2030” strategiyasi tasdiqlandi.

Strategiyada quyidagi asosiy g‘oyalar aks etgan:

- barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

8 Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi: “davlat – jamiyat – inson” tamoyilidan “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o‘tilmoqda. Havola: <http://pravacheloveka.uz/oz/articles/jangi-zbekiston-taraqet-strategijasi-davlat-zhamijat-inson-tamojildan-inson-zhamijat-davlat-tamojiliga-tilmoda>



- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.⁹
- “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi 5 ta ustuvor yo‘nalishdan iborat:
- har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlarni yaratish;
 - barqaror iqsisodiy o’sish orqali aholi farovonligini ta’minlash;
 - suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;
 - qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;
 - "Xavfsiz tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

Xulosa. Shuni aytish lozimki, bugungi kunda keng ko'lamlı islohotlar jarayoni izchil davom etib borishi, ularning sermahsul bo'lishidan butun xalqimiz manfaatdor. Davlatimiz olib borayotgan islohotlari turli yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin, lekin faoliyatini aniq bir strategik yo‘lda olib boradi. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida barcha davlat va jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatni institutlari hamda nodavlat va notijorat tashkilotlari vakillari ham birgalikda harakat qilishiga umid qilamiz.

Zero, Taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yanada yangi bosqichini boshlab berdi. Xalqimizni umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirib turadigan yaxlit ma’naviy me’zonga aylanishiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdug‘ani Xolbekov. Boshqaruv sotsiologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Akademiya” Toshkent 2007. 7-bet;
2. Xobekov A, Idirov U. Sotsiologiya (izohli lug’at ma’lumotnoma). – T. Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1999. 24- bet;
3. Ma’naviyat. Assosiy tushunchalar izohli lug‘ati., - T.; G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. 156-bet;
4. Sodiqova Sh. Boshqaruv sotsiologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Akademiya” Toshkent – 2011. 24 – bet;
5. Sodiqova Sh. Boshqaruv sotsiologiyasi(o‘quv qo‘llanma). T, Akademiya, 2011. 26-b;
6. YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI: “davlat – jamiyat – inson” tamoyilidan “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o‘tilmoqda. Havola: <http://pravacheloveka.uz/oz/articles/jangi-zbekiston-taraiet-strategijasi-davlat-zhamijat-inson-tamojilidan-inson-zhamijat-davlat-tamojiliga-tilmoda>

⁹ https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/uzbekiston_-_2030_strategiyasi_asosiy_goyalari



7. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi: “davlat – jamiyat – inson” tamoyilidan “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o‘tilmoqda. Havola: <http://pravacheloveka.uz/oz/articles/jangi-zbekiston-taraiet-strategijasi-davlat-zhamijat-inson-tamojilidan-inson-zhamijat-davlat-tamojiliga-tilmoda>
8. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/uzbekiston_2030_strategiyasi_asosiy_goyalari